

Surxondaryoda ilk bor dron-shou bo'lib o'tdi



Surxondaryoda ilk bor dron-shou bo'lib o'tdi

Termiz shahridagi "Bolajon" bog'ida dron-shou o'tkazildi. Shou avvalida san'atkorlar ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasining xaritasi, davlat bayrog'i, Saylov-2021 va siyosiy partiyalar nomlari 250 ta dronlar yordamida aks ettirildi.

Dron-shouni Termiz shahri va tumanlardan tashrif buyurgan yurtdoshlarimiz hamda vohamizga tashrif buyurgan xorijiy kuzatuvchilar tomosha qilishdi.

Shou dasturi viloyat teleradiokompaniyasi orqali to'g'ridan-to'g'ri jonli efir orqali namoyish etildi.

